



ISSUES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TO PREVENT CORRUPTION IN CIVIL COURTS, FOREIGN EXPERIENCE AND SUGGESTIONS

Dilafroz Riskhitillayeva

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Civil courts, artificial intelligence, corruption, digital technologies, foreign experience, judicial system, judges, transparency, data analysis.

Received: 10.04.25

Accepted: 12.04.25

Published: 14.04.25

Abstract: This article analyzes the use of artificial intelligence technologies in civil courts for preventing corruption. Based on foreign experience, the article discusses in detail how artificial intelligence can be effectively applied in the judicial system, including digital technologies and modern approaches. Examples of advanced foreign practices are provided, along with proposals adapted for Uzbekistan. The study focuses on the role of artificial intelligence in analyzing court cases, detecting questionable decisions, and preventing corruption.

FUQAROLIK SUDLARIDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISHDA SUN'IIY INTELLEKTNI QO'LLASH MASALALARI, XORIJIY TAJRIBA VA TAKLIFLAR

Dilafroz Riskhitillayeva

magistratura tinglovchisi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Fuqarolik sudlari, sun'iy intellekt, korrupsiya, raqamli texnologiyalar, xorijiy tajriba, adolat tizimi, sudyalari, shaffoflik, ma'lumotlar tahlili.

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik sudlarida korrupsiyani oldini olish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqola xorijiy tajribaga asoslanib, sun'iy intellektni sud tizimida qanday samarali ishlatish mumkinligi, shu jumladan raqamli texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Xorijiy davlatlarning ilg'or amaliyotlari, shuningdek, O'zbekiston uchun moslashtirilgan takliflar keltirilgan. Tadqiqot

davomida sun'iy intellektning sud ishlarini tahlil qilish, shubhali qarorlarni aniqlash va korrupsion holatlarni oldini olishdagi roliga e'tibor qaratilgan.

ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОРРУПЦИИ В ГРАЖДАНСКИХ СУДАХ, ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Дилафруз Рихситиллаева

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гражданские суды, искусственный интеллект, коррупция, цифровые технологии, зарубежный опыт, судебная система, судьи, прозрачность, анализ данных.

Аннотация: В данной статье анализируется использование технологий искусственного интеллекта в гражданских судах для предотвращения коррупции. Статья, основанная на зарубежном опыте, подробно рассказывает о том, как эффективно использовать искусственный интеллект в судебной системе, включая цифровые технологии и современные подходы. Приведены примеры передового опыта зарубежных стран и предложения, адаптированные для Узбекистана. В ходе исследования уделено внимание роли искусственного интеллекта в анализе судебных дел, выявлении сомнительных решений и предотвращении коррупционных ситуаций.

KIRISH:

“Korrupsiyaga qarshi kurashish – bu faqat jinoyatga qarshi kurashish emas, balki adolatli jamiyat barpo etish masalasidir.” Shavkat Mirziyoyev

Hozirgi globallashuv davrida har bir davlatning taraqqiyoti, inson huquqlari va erkinliklari ta'minoti, fuqarolarning davlat idoralari faoliyatiga bo'lgan ishonchi yuqori darajada ochiqlik, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashish darajasiga bog'liqdir. Ayniqsa, sud hokimiyati – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi asosiy institut sifatida doimiy ravishda islohotlar, ilg'or yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib borilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, fuqarolik sudlarida korrupsiyani oldini olish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Korrupsiya – bu shunchaki axloqiy buzilish emas, balki davlat boshqaruvi samaradorligiga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Ayniqsa, sud tizimida korrupsiya holatlari aniqlanishi fuqarolarning adolatga bo'lgan ishonchini susaytiradi, sud qarorlarining qonuniyligi

va asoslilikiga shubha uyg'otadi, jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi. Shu boisdan, korrupsiyaning sud tizimida ildiz otishiga yo'l qo'ymaslik, uni oldindan aniqlash va samarali chora-tadbirlar bilan yo'q qilish zamonaviy davrda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi natijasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud tizimi, davlat boshqaruvi institutlarida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Xususan, sun'iy intellekt yordamida korrupsion xatti-harakatlarni oldindan aniqlash, hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, protsessual qarorlarning izchilligini nazorat qilish, sudyalarning faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Bu esa fuqarolik sudlarida ochiqlikni ta'minlash, inson omiliga bog'liq xatolik va suiste'molliklarni kamaytirish, eng muhimi, korrupsiyaga qarshi barqaror tizim yaratishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidenti tashabbusi bilan so'nggi yillarda sud tizimida shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va sudyalarning faoliyatini baholash mezonlarini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, "Sud-huquq sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish dasturi", "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot tizimlarini joriy qilish" bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, "E-SUD" tizimi, "Yagona sud amaliyoti" elektron platformasi kabi dasturlar joriy qilinib, raqamli texnologiyalar yordamida sud faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va nazoratga olinishi kuchaytirildi.

Mazkur maqolada fuqarolik sudlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari, xorijiy davlatlar tajribasi va O'zbekiston sharoitida joriy etilishi mumkin bo'lgan model va takliflar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, korrupsiyani aniqlashda ma'lumotlar bazasi, algoritmik yondashuvlar, intellektual monitoring va real vaqtli nazorat tizimlarining o'rni yoritiladi.

Fuqarolik sudlari adolatni ta'minlash, huquqiy nizolarni hal qilish va fuqarolar ishonchini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Ammo, sud tizimida korrupsiya xatarining mavjudligi, qonun ustuvorligi va sudlarning obro'siga jiddiy tahdid soladi. Korrupsiyani oldini olish uchun sud tizimi doimiy yangilanish va islohotlarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan sun'iy intellekt (SI) vositalari, fuqarolik sudlarida korrupsiyani kamaytirish va uni oldini olishda muhim vosita sifatida ajralib turadi.

Fuqarolik sudlarida korrupsiya – bu sudyalarning, sud apparati xodimlari yoki boshqa ishtirokchilarning o'z xizmat mavqeidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishi orqali yuzaga keladigan holatdir. Korrupsiyaning bu shakli sud jarayonlarining adolatli va shaffof bo'lishiga to'sqinlik qiladi, jamiyatda huquqiy ongni pasaytiradi va fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini yemiradi.

Korrupsiya fuqarolik sudlarida quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- Sud qarorlarini pul evaziga o‘zgartirish yoki bir tomon foydasiga chiqarish;
- Sud ekspertizasiga ta’sir o‘tkazish;
- Ishlarni sun’iy cho‘zish yoki tezlashtirish;
- Dastlabki ma’lumotlarga qasddan noto‘g‘ri yondashish;
- Sud apparatidagi ichki ma’lumotlardan foydalanib manfaat ko‘zlash.

Bu muammolar sud tizimini zamonaviy, raqamli, avtomatlashtirilgan va inson omiliga kamroq bog‘liq mexanizmlar bilan mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt vositalarining joriy etilishi korrupsiyani kamaytirishga kuchli vosita bo‘la oladi.

Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlarining inson miyasiga o‘xshash ravishda o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, bashorat qilish va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Bugungi kunda SI texnologiyalari turli sohalarda, shu jumladan huquqiy sohada keng qo‘llanilmoqda. Xususan, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Ma’lumotlar tahlili (data analytics):** sud qarorlarini avtomatik tahlil qilish, statistik xatoliklarni aniqlash;
- **Mashinali o‘rganish (machine learning):** oldingi sud ishlarini o‘rganish orqali yangi ishlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- **Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP):** hujjatlarni avtomatik o‘qish va anglash, shubhali jumalarni aniqlash;
- **Sud qarorlarini prognoz qilish:** qarorlarning ehtimoliy natijasini sun’iy intellekt orqali taxmin qilish.


Raqamli texnologiyalar esa sud tizimining umumiy avtomatlashtirilishini ta’minlaydi:

- Elektron sud ish yurituv tizimlari;
- Onlayn monitoring tizimlari;
- Sudyalarning qarorlarini reytinglash tizimlari;
- Virtual sud majlislari.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi fuqarolik sudlarida inson omiliga bog‘liq xatoliklar va korrupsion aralashuv ehtimolini kamaytiradi. Masalan, SI orqali anonim tahlil qilinadigan sud qarorlari statistik jihatdan eng ko‘p ko‘riladigan muammolarni ko‘rsatadi. Bu esa tahlilga asoslangan islohotlar olib borish imkonini beradi.

Sud tizimini raqamlashtirish sudlarda ishlarni tez va sifatli ko‘rib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Bu jabhada esa mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rni bilan hozircha maqtana olmaymiz. Jumladan, 2022-yil natijalariga ko‘ra mamlakatimiz dunyo davlatlari ichida Qonun ustuvorligi indeksi bo‘yicha – 78-o‘rin, shundan **"Fuqarolik odil sudlov" indikator – 74**, "Jinoiy odil sudlov" indikator – 65-o‘rinda turibdi. Ushbu indeksda mamlakatimiz nufuzini

tushirayotgan omillar sifatida korrupsiyaning mavjudligi, moddiy texnik ba'zaning yaxshi emasligi, fuqarolar yuqori xarajatlar va vaqt sababli sudlovdan voz kechishi sanab o'tilgan. O'zbekistonning reytingda egallab turgan o'rni va unga sabab bo'lgan omillar bevosita tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va sudlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish lozimligini anglatadi [1].



Zamonaviy huquqiy tizimlarda sun'iy intellektdan foydalanish tendensiyasi global tus olmoqda. "Dunyoda sun'iy intellekt yordamida qabul qilingan sud qarorlari kamdan-kam uchraydi, biroq ular huquqiy amaliyotda yangi bosqichni boshlab berdi. Masalan, 2012 yilda Nyu-Yorkda ko'rilgan Da Silva Mur – Publicis Groupe ishi sun'iy intellekt yordamida dalillarni baholash uchun qo'llangan ilk holatlardan biri sifatida tarixga kirdi [2].

Bu ishda javobgarning 3 milliondan ortiq elektron hujjatlari tahlil qilinishi kerak edi. Sudya Endryu Pek dalillarni saralash va tahlil qilish uchun sun'iy intellektning "prediktiv kodlash" usulini qo'llashni taklif qildi. Bu usul tezkorlikni oshirish imkonini bergan bo'lsa-da, taraflarning noroziliklari va apellyatsiyalarga sabab bo'ldi. Ularning asosiy noroziligi dasturning ishonchligi va g'arazsizligini tekshirish bilan bog'liq edi.

Xuddi shunday, 2016 yilda Buyuk Britaniyada ko'rilgan Pyrrho Investments Ltd – MWB Property Ltd ishi ham sun'iy intellektni sud jarayonida qo'llash bo'yicha muhim tajriba hisoblanadi. Bu ishda 17,6 million hujjatdan iborat dalillar yig'ilgan bo'lib, ularni oddiy qo'l mehnati yordamida tekshirish katta mablag' va vaqt talab qilardi. Sudya Pol Metyuz "prediktiv kodlash" usulining afzalliklarini tan olgan holda, uni qo'llash uchun muhim asoslarni keltirdi. Bu usul elektron hujjatlarni samarali tahlil qilish imkonini yaratdi, ammo ushbu yondashuvning yuridik va axloqiy jihatlari bo'yicha savollar hanuz muhokama mavzusi bo'lib qolmoqda" [2].

Estoniya ya'ni raqamli davlat sifatida tanilgan ushbu mamlakatda "Robot-sudya" loyihasi ishga tushirilgan bo'lib, u kichik qiymatdagi 7000 yevrogacha bo'lgan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan. Sud qarorlari algoritm asosida chiqariladi, inson aralashuvi faqat apellyatsiya bosqichida mavjud.

AQSH — bu yerda sun'iy intellekt yuridik firmalar va sud organlari tomonidan "legal analytics" vositalari orqali qo'llanilmoqda. Masalan, "ROSS Intelligence" yoki "Lex Machina" tizimlari sud amaliyotini tahlil qilib, advokatlarga ehtimoliy natijalarni ko'rsatadi [3].

Xitoy — mamlakatda "Internet sudi" tizimi mavjud bo'lib, bu yerda da'vo arizasi topshirishdan tortib, qaror chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlar sun'iy intellekt orqali avtomatlashtirilgan. "Smart Court" dasturi nafaqat hujjatlarni tahlil qiladi, balki qaror loyihasini ham ishlab chiqadi [3].

2019 yilda Shenchjen shahri sudi Xitoyda sun'iy intellektdan foydalangan holda qabul qilingan ilk sud qarorini e'lon qildi. Mazkur onlayn savdo platformasida to'lov tizimlari bo'yicha bahsga oid ishda sudyalari tomonidan foydalanilgan "Fa syao" (FaXiao) nomli sun'iy intellekt platformasi ish jarayonini tezlashtirishga yordam bergan [4].

Platforma sudyalarga dalillarni avtomatik ravishda saralash, qonuniy pretsedentlarni tahlil qilish va qarorni asoslashda yordam berdi. Sudya sun'iy intellekt orqali taqdim etilgan dalillar asosida insonning etik nuqtai nazarini saqlagan holda qaror qabul qildi. Bu qaror Xitoyda huquqiy tizimda sun'iy intellektdan foydalanishning yangi bosqichi sifatida baholandi [4].

Xitoyning "Aqlli sudlar" dasturiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu dastur 2017 yildan beri amalda bo'lib, u sud jarayonlaridagi asosiy vazifalarni avtomatlashtirishni o'z ichiga oladi: sud robotlari: fuqarolarga qonuniy maslahat berish, sud hujjatlarini tayyorlash va ularni avtomatik tahlil qilishni amalga oshiradi; avtomatik dalil tahlili: sun'iy intellekt platformalari elektron hujjatlardan kerakli ma'lumotlarni tezkorlik bilan topadi; prognoz qilish va baholash: sun'iy intellekt o'tmishdagi sud qarorlarini tahlil qilib, yangi ishlarning ehtimoliy natijalarini taxmin qiladi [4].

Xitoyning bu borada erishgan natijalari ham ko'zga ko'rinarli. Xususan, 2019 yilda ishga tushirilgan "Zhangyi Court" elektron platformasi sun'iy intellekt yordamida ishlarni avtomatik ravishda ko'rib chiqishga mo'ljallangan. Platforma taraflarning tomonlarni kuzatuvchi videokonferensiya orqali ishtirok etishiga imkon beradi va hujjatlarni raqamlashtirib, ish jarayonini tezlashtiradi [4].

Shu kabi, Jiangsu provinsiyasida sun'iy intellekt 9 milliondan ortiq ishni avtomatik ravishda saraladi, bu esa katta vaqt va mablag' tejashga yordam berdi.

Xitoyning "Aqlli sudlar" dasturi sun'iy intellekt texnologiyalarini sud tizimida joriy etishning ilg'or namunalaridan biri bo'lib, bu tajriba boshqa mamlakatlar uchun ham yangi yo'nalishlarni ochmoqda.

Fransiya — Predictive Justice ("bashoratchi adolat") loyihasi orqali ilgari chiqarilgan sud qarorlari asosida yangi holatlar bo'yicha ehtimoliy natijalar sun'iy intellekt vositasida taklif etiladi.

Ushbu tajribalar sun'iy intellekt nafaqat sud tizimining samaradorligini oshirishda, balki korrupsion holatlarni kamaytirishda ham muhim vosita bo'la olishini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda fuqarolik sudlarida korrupsiyani kamaytirish va adolatli sudlov tizimini shakllantirish maqsadida bir qator institutsional, qonunchilik va texnologik islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning markazida ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik va sun'iy intellektdan foydalanishga tayangan yangi yondashuvlar turadi.

Avvalo, **“Elektron sud”** tizimining joriy etilishi korrupsion omillarni kamaytirishda muhim qadam bo'ldi. Mazkur platforma orqali da'vo arizalarini elektron shaklda yuborish, sud hujjatlari bilan masofadan tanishish va onlayn tarzda sud majlislarida ishtirok etish imkoniyatlari fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshirmoqda. Bunday ochiqlik va avtomatlashtirilgan jarayonlar inson omilini kamaytirish orqali korrupsiyaviy xatarlarni sezilarli darajada pasaytirishga xizmat qilmoqda¹.

“Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi prezident farmoni bilan 2023–2026 yillarga mo'ljallangan **Sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi** tasdiqlangan.

Yana bir muhim hujjat – **Prezidentning 2023-yil 28-martdagi PQ–102-sonli qaroriga** muvofiq, 2025-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruvi va sud tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha aniq yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Ushbu strategik hujjat raqamli infratuzilmani mustahkamlash, SI tizimlarini sinovdan o'tkazish, hamda yuridik kadrlarga zamonaviy texnologiyalar bo'yicha bilim berish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni tezlashtirish shartlari belgilangan. 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qarori esa mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Shuningdek, 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-sonli Farmonda sud tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qisqa muddatli strategiya tasdiqlanib, sud va prokuratura organlariga bir qator vazifalar yuklatilgan.

Farmonda sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ixtisoslashgan prokurorlar korpusining asosiy vazifalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Shu maqsadda 2025-yilning 13-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida **“Sud ishlarini yuritishda sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi [5].

Konferensiya doirasida sud ishlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari, huquqiy jihatlari, xalqaro tajriba hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari muhokama qilindi. Shuningdek, konferensiyada quyidagi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratildi:

- sud ishlarida sun'iy intellektni joriy etishning huquqiy asoslari;
- huquqiy tahlil va hujjatlarni avtomatlashtirishda sun'iy intellekt imkoniyatlari;
- sud qarorlarini qabul qilishda sun'iy intellektidan foydalanishda xorijiy davlatlar tajribalari;
- elektron sudlov tizimi va intellektual yordamchi vositalar;
- sud ishlarida sun'iy intellektga asoslangan axborot xavfsizligi masalalari;
- sun'iy intellektning sud-huquq tizimida yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va ularning oldini olish masalalari [5].

Yuqoridagi qonunchilik asoslari va amaliy loyihalar korrupsiyaga qarshi kurashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarining nafaqat dolzarbligini, balki ularning real natijadorlikka olib kelayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, inson omilining minimal darajaga tushirilishi, jarayonlarning avtomatlashtirilishi va real vaqt rejimida monitoring imkoniyatlarining kengaytirilishi — bu tizimda xorijiy mamlakatlar miqiyosida korrupsiyani bartaraf etishdagi asosiy vositalarga aylanmoqda. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik sudlarida SI qo'llash amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish korrupsiyani kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dunyoda korrupsiya bo'yicha statistikalar, O'zbekiston misolida [WJP Rule of Law Index | Uzbekistan Insights](#)
2. Sun'iy intellekt tizimidan foydalanishning huquqiy asoslari: zarur qadamlar – maqola, <https://parliament.gov.uz/news/suniy-intellekt-tizimidan-foydalanishning-huquqiy-asoslari-zarur-qadamlar>
3. Andreev, V. A. (2016). *Tekhnologii iskusstvennogo intellekta v pravovoi sfere*. Moskva: Yuridicheskii Tsentr Press.
4. Sud tizimiga sun'iy intellektni joriy qilish qanday ahamiyat kasb etadi? N.Abduraimova, O'zA, 28.01.2025, maqola.
5. “Sud ishlarini yuritishda sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, maqola, <https://proacademy.uz/uz-lat/news/view?alias=2269>